

YOSHLAR SUBMADANIYATI: PEDAGOGIK YONDASHUV VA PROFILAKTIK IMKONIYATLAR

Xasanova Marxabo To‘rayevna

Namangan davlat universiteti

mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada yoshlar submadaniyatining mazmuni, shakllanish omillari va uning jamiyatdagi o‘rni tahlil qilingan. Yoshlar submadaniyatining individual va ijtimoiy o‘zini anglash, tengdoshlar guruhiga mansublik hissi va muqobil hayotiy yo‘llarni izlash kabi ehtiyojlar asosida yuzaga kelishi, ular muayyan xulq-atvor, til, kiyinish uslubi va madaniy qadriyatlarga ega bo‘lib, katta avlod va rasmiy madaniyatga nisbatan alohida pozisiyani shakllantirishlari ochib berilgan. Shuningdek, maqolada yoshlarning ijtimoiylashuvidanagi muammolarni bartaraf etish, ularni ijtimoiy muhitga uyg‘unlashtirish, deviant xulq-atvorming oldini olish maqsadida ta’lim muassasasi, oila va ijtimoiy institutlari o‘rtasida hamkorlikda ish olib borish zaruriyati ilmiy asoslangan.

Kalit so‘zlar: yoshlar submadaniyati, pedagogik yondashuv, ijtimoiylashuv, profilaktika, deviant xulq-atvor, ta’lim tizimi, ijtimoiy muhit, madaniy qadriyatlar, submadaniyaviy identifikatsiya, yoshlar siyosati.

Аннотация: В данной статье проанализированы содержание молодежной субкультуры, факторы её формирования и её роль в обществе. Раскрыто, что молодежная субкультура возникает на основе потребностей в индивидуальном и социальном самопознании, чувства принадлежности к группе сверстников и поиска альтернативных жизненных путей. Молодежные субкультуры обладают определённым поведением, языком, стилем одежды и культурными ценностями, формируя особую позицию по отношению к старшему поколению и официальной культуре. Также в статье научно обоснована необходимость сотрудничества между образовательными учреждениями, семьёй и социальными институтами с целью устранения проблем социализации молодежи, их гармоничной интеграции в социальную среду и предупреждения девиантного поведения.

Ключевые слова: молодежная субкультура, педагогический подход, социализация, профилактика, девиантное поведение, система образования, социальная среда, культурные ценности, субкультурная идентификация, молодежная политика.

Bugungi global o‘zgarishlar davrida yoshlar hayotidagi madaniy, axloqiy va ijtimoiy jarayonlar alohida e’tibor talab etadi. Yoshlar turli ijtimoiy guruhlar va madaniy ta’sirlar ta’sirida shakllanayotgan submadaniyatlar orqali o‘zini anglashga, jamiyatdagi o‘rnini topishga va hayotiy qarashlarini shakllantirishga harakat qilmoqda. Bu submadaniyatlar ba’zan ijtimoiy normalarga mos kelsa-da, ko‘p hollarda umum qabul qilingan qadriyatlar va tartiblar bilan ziddiyatga boradi. Shuning uchun ham yoshlar submadaniyatiga zamonaviy pedagogik yondashuv, uni tahlil qilish va uning salbiy ta’sirini baholash muhim ahamiyatga ega.

Yoshlar submadaniyati faqatgina tashqi ifoda yoki shovqinli namoyon bo‘lish shakli emas, balki yoshlarning ichki ehtiyojlari, o‘zini anglash va jamiyatdagi murakkab munosabatlarga javob shakli sifatida namoyon bo‘ladi. Ushbu jarayonni pedagogik jihatdan to‘g‘ri anglash va unga mos ravishda profilaktika mexanizmlarini ishlab chiqish, ta’lim va tarbiya tizimida yoshlarni ijobiy yo‘nalishga yo‘naltirish imkonini beradi. Shu boisdan, yoshlar submadaniyatini ilmiy-pedagogik jihatdan o‘rganish, uning nazariy va amaliy ahamiyatini belgilab olish jamiyatning barqaror rivojlanishi uchun muhim hisoblanadi.

Alohida turdagи submadaniyatlarning shakllanishiga oid nazariy bilim va asoslarni tartibga solish zarurati bilan bir qatorda, yoshlar submadaniyatlarining rivojlanish dinamikasi, ularning o‘ziga xos xususiyatlari, kelib chiqish manbalari va yaqin kelajakda yosh avlodning hayot tarziga ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan omillarni o‘rganish ehtiyoji ham yoshlar madaniyatini barcha ko‘rinishlari doirasida chuqur va kompleks tahlil etish talabini yuzaga chiqarmoqda. Psixologik, sosiomadaniy, etnik va iqtisodiy munosabatlarning faol ishtirokchisi sifatida yoshlar o‘z xatti-harakatida muayyan madaniy an’analar va qadriyatlarni namoyon etib, turli ijtimoiy va yosh toifalari, ta’lim tizimi hamda madaniy-dam olish muhiti bilan samarali o‘zaro aloqa o‘rnatadi.

Yangi avlod jamiyatning sosiomadaniy tiklanishi va taraqqiyotida hal qiluvchi o‘rin tutishi lozim. Yoshlar – jamiyatning yangilash salohiyati, intellektual va ma’naviy zahirasi sifatida qaralishi shart, chunki ular innovation g‘oyalarni qabul qilish va zamonaviy hayot sharoitlariga tezda moslashish qobiliyatiga ega.

Ayni paytda, amaldagi iqtisodiy va ijtimoiy dasturlarda yosh avlodning o‘ziga xos ijtimoiy maqomi to‘liq hisobga olinmasa, yoshlar mavjud ijtimoiy munosabatlar va tuzilmalar tizimida cheklangan darajada ishtirok etishiga sabab bo‘ladi. Bu holat ularning jamiyat, davlat va oiladan asta-sekin ajralib borishiga, begonalashuviga, masofaning ortishiga sabab bo‘lmoqda.

Yoshlar nuqtai nazaridan, bunday muammolarni hal etishning eng muhim yo‘llaridan biri – o‘zligini turli yoshlar submadaniyatları ichida namoyon etish, o‘zini topishdir. Sababi, submadaniyatlar doirasida hayot tarzi muayyan xronotopga, ya’ni o‘zgacha vaqt va makon tasavvuriga, qadriyatlar iyerarxiyasiga va individual uslubiy namoyonlikka asoslanadi. Biroq, bunday madaniy ifoda ko‘p hollarda jamiyatdagi mavjud ijtimoiy me’yorlar bilan ziddiyatga kiradi.

Shu sababdan jamiyatda yoshlarga nisbatan munosabat ham asta-sekin o‘zgarib bormoqda. Ayniqsa, yoshlar o‘rtasida kuzatiladigan og‘ma xulq-atvor muammolariga bag‘ishlangan maqola va tahliliy materiallar soni sezilarli darajada ortib bormoqda.

Katta va yosh avlod o‘rtasidagi qarama-qarshiliklar tabiiy rivojlanish xususiyatiga ega bo‘lsa-da, biroq, bu holat jamiyat hayotida oddiy bir holatga aylanib bormoqda. Natijada, o‘z dunyoqarashi bilan yangiliklarga ochiq bo‘lgan va tez moslashuvchan yoshlar ko‘pincha bunday ziddiyatli vaziyatlardan chiqish yo‘lini izlashga majbur bo‘ladi. Bu esa ularning o‘z salohiyatini turli yoshlar submadaniyatları doirasida namoyon etishga olib keladi.

Submadaniyat kattalar va boshqa tengdoshlar tomonidan yuzaga keladigan ma’naviy bosimni kompensatsiya qiluvchi vazifani bajaradi. Submadaniyat muhitni esa yoshlar uchun ruhan yaqin va qulay bo‘lib, ahamiyatli shaxslar tomonidan yetarli darajada e’tibor va tushunish yetishmasligini samarali tarzda qoplaydi¹.

¹ Социология молодежи. / В.И. Чупров, Ю.А. Зубок. Учеб. Пособие для вузов. – Изд: «Норма», 2011 г. – С.411.

Amaliyotda esa ba'zan repressiv mexanizmlar, xususan ommaviy axborot vositalari orqali ishga tushirilishi kuzatiladi. Bunday yondashuv o'smirni jamiyatdan chetlashtirib, uni turli deviant muhitga moyillashtirishi mumkin. Bunday muhit esa o'z qadriyatlar tizimi va daromad manbai sifatida qaraladigan faoliyat turlarini taklif etgan holda, yoshlar uchun ijtimoiylashuvning muqobil agentlariga aylanadi. Natijada, yoshlar o'z muammolarini hal etishga urinayotganda, deviant yoki delinkvent yo'llarni tanlashi ehtimoli ortib boradi.

Bu holatda yoshlar uchun ijtimoiy ifodalanish va o'zgarishlar qilish imkoniyatlari cheklanib, ularning ichki e'tirozlari va ehtiyojlari o'zini xato yo'lda ifoda etishga undaydi. Jamiyatning repressiv munosabatlari yoshlar uchun alternativ, ko'pincha jinoyatga moyil bo'lgan muammolarni hal qilish yo'llarini taklif qiladi. Shuning uchun ham pedagogik yondashuv va profilaktika choralar muhim ahamiyatga ega bo'lib, yoshlar submadaniyatlarini ijobiy yo'naliishlarga olib borish, ularga yordam berish va jamiyatga moslashish uchun imkoniyatlar yaratish zarur bo'ladi. Pedagogika va ijtimoiy tarbiya tizimi yoshlarning ichki qiyinchiliklarini tushunish va ularga muvofiq yo'naliish berish orqali deviant quloqni kamaytirish va ijobiy rivojlanishini ta'minlashga yo'naltirilishi kerak.

Pedagogika fani oldida esa muhim vazifa turibdi — avlodlar o'rtaсидаги uzilish jarayonini teran anglash, yoshlar submadaniyatlarining shakllanishi va rivojlanish jarayonlarini ta'limning gumanistik paradigmasi doirasida tahlil qilish. Bu esa jamiyatdagi ta'lim va madaniy-bo'sh vaqt muhitida yuzaga kelayotgan salbiy holatlarning oldini olish va ularni bartaraf etishga qaratilgan amaliy chora-tadbirlarni ishlab chiqish uchun muhim ahamiyatga ega².

Ayniqsa, hozirgi kunda yoshlar submadaniyatlarida kechayotgan jarayonlarni sinchkovlik bilan tahlil qilish talab etiladi. Chunki bu submadaniyatlar ideologiyasi yoshlarga nafaqat tengdoshlari orasida, balki katta avlod bilan munosabatlarda ham moslashuvdagi qiyinchiliklarni yengib o'tishga xizmat qiladigan mexanizmlarni shakllantiradi.

² Н.Бушмарина. Молодежные субкультуры как предмет педагогического исследования. Автореферат диссертации докторской на соискание ученой степени кандидата педагогических наук. Москва. 2008.-С.19.

Yoshlar submadaniyatlari o‘z-o‘zini tashkil etuvchi, ichki mantiqiy qonuniyatlarga ega tizim sifatida namoyon bo‘ladi. Ular dinamik xususiyatga ega bo‘lib, har bir yangi davrda jamiyatda kechayotgan ichki va tashqi o‘zgarishlarga muvofiq ravishda reaksiya bildirish bilan bir qatorda, o‘z mavjudligi uchun zarur bo‘lgan yangi sharoitlarga moslashish qobiliyatini namoyon etadi³.

Bu moslashuv jarayoni yoshlar submadaniyatlarining o‘z qadriyatlar tizimini, urfodatlarini va simbolik ifodalarini yangilab borishini ta’minlaydi. Shu orqali ular nafaqat zamonaviy hayot ritmiga moslashadi, balki yoshlar ongidagi ijtimoiy va shaxsiy muammolarga ijodiy yondashuv bilan yechim topish imkoniyatini ham taqdim etadi. Bunday submadaniyatlar tengdoshlar orasida muloqot, birdamlik va o‘zaro qo‘llab-quvvatlash muhitini shakllantirib, yoshlar uchun muqobil ijtimoiy makon vazifasini bajaradi.

So‘nggi o‘n yillikda, ayniqsa pedagogika sohasida, yoshlar submadaniyatlarini global ijtimoiy hodisa hamda milliy xususiyatlarga ega jarayon sifatida o‘rganish yuzasidan salmoqli ilmiy materiallar to‘plangan. Yuzlab ilmiy asarlar, maqolalar, elektron manbalar va amaliy ishlanmalar yaratilgan bo‘lib, ularda ilmiy jihatdan ahamiyatli va amaliy faoliyatda qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan natijalar o‘z ifodasini topgan.

Bugungi kunda esa, mazkur ilmiy materiallarni tanqidiy pedagogik tahlil qilish, ularning «rasional yadrosi»ni aniqlash, yoshlar submadaniyatlarining faoliyat xususiyatlarini umumlashtirish va tizimplashtirish vazifasi dolzarb hisoblanadi. Bu masala yechilmas ekan, yoshlar submadaniyatları vakillarining deviant (yoki delinkvent) xatti-harakatlarini kamaytirishga qaratilgan profilaktik va tuzatuv choralarini samarali amalga oshirish mumkin bo‘lmaydi.

Shuning uchun, yoshlar submadaniyatlarining ishslash mexanizmlarini aniq tushunish, ularning ijtimoiy-kanalizatsiyalangan yondashuvlarini, qadriyatlar tizimini va ijtimoiy munosabatlarini tahlil qilish muhim ahamiyatga ega. Bu ish nafaqat nazariy,

³ Н.Бушмарина. О методах психолого-педагогической и социальной помощи представителям молодежных субкультур //Актуальные проблемы психологического знания. Выпуск № 1(6). М.: НОУ ВПО Московский психологосоциальный институт, 2008. –С.17.

balki amaliyotdagi pedagogik va ijtimoiy metodlarni ishlab chiqish uchun zarurdir. Agar yoshlar submadaniyatlari va ularning harakatlari to‘g‘ri tahlil qilinsa, pedagoglar va ijtimoiy ish xodimlari ularning ehtiyojlarini to‘g‘ri anglash, muammolarni samarali hal qilish va deviant xatti-harakatlarni kamaytirish uchun aniq va ustuvor choralarini belgilash imkoniyatiga ega bo‘lishadi. Buning natijasida yoshlar ijtimoiy munosabatlarda barqarorlik va integratsiyaga erishishi mumkin, bu esa ularning rivojlanishida muhim omil bo‘ladi.

Yoshlar submadaniyatlarining yuzaga kelishi va rivojlanish mexanizmlarini anglash orqali, yosh avlodning yangi hayotiy sharoitlarda xavfsiz va uyg‘un rivojlanishiga zamin yaratadi.

Bu esa ta’lim muassasalari, oila va jamiyat o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlikni mustahkamlash, yoshlarning ijtimoiy-emosional ehtiyojlarini hisobga olgan holda, ularga mos tarbiyaviy va ta’limiy strategiyalarni shakllantirish imkonini beradi. Shu orqali yoshlar faol va mas’uliyatli fuqaro sifatida voyaga yetishlari, o‘zining shaxsiy salohiyatini to‘liq ro‘yobga chiqarishlari hamda jamiyatda o‘z o‘rnini topishlari uchun qulay sharoit yaratiladi.

Yoshlar submadaniyati — bu na faqat moda yoki tashqi ko‘rinish, balki ichki hissiyotlar, ijtimoiy munosabatlar va hayotdagi yo‘nalishlarni izlashga javob sifatida paydo bo‘ladigan madaniy forma hisoblanadi. Ushbu jarayonni chuqur anglash orqali yoshlarga to‘g‘ri yo‘nalish berish va ijtimoiy adaptatsiyasini qo‘llab-quvvatlash mumkin.

Yoshlar submadaniyati zamонавији jamiyatdagi ijtimoiy, madaniy va psixologik o‘zgarishlarning yorqin ifodasi bo‘lib, yosh avlodning ichki ehtiyojlari, o‘zini anglash, jamiyatda o‘z o‘rnini topishga intilishi bilan uzviy bog‘liq. Ushbu submadaniyatlar faqat tashqi belgilar emas, balki muayyan qadriyatlar, hayotiy pozisiyalar va munosabatlarni o‘zida mujassam etgan mustaqil madaniy tizimlardir.

Pedagogik yondashuv va profilaktik imkoniyatlarni samarali yo‘lga qo‘yish orqali yoshlarning ijtimoiy moslashuvini ta’minlash, ularni deviant xulq-atvordan asrash va ijobiy hayotiy maqsad sari yo‘naltirish mumkin. Bu esa ta’lim, tarbiya, oila va jamiyat

hamkorligida amalga oshirilishi lozim bo‘lgan dolzarb va ustuvor vazifalardan hisoblanadi.

Demak, xulosa qilganda, yoshlar submadaniyatini chuqur anglash va tahlil qilish — bu faqat ilmiy izlanish emas, balki amaliyotga yo‘naltirilgan muhim ijtimoiy vazifadir. Bu orqali yoshlarning ichki dunyosi, ehtiyojlari va orzu-istikclarini to‘g‘ri tushunish mumkin bo‘lib, ularni ijtimoiy hayotga moslashtirish, to‘g‘ri yo‘nalish berish va deviant xatti-harakatlarning oldini olishga xizmat qiladi. Shu tariqa, pedagogik yondashuvlar asosida ishlab chiqilgan profilaktik choralar yoshlarning uyg‘un va barqaror rivojlanishiga zamin yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Социология молодежи. / В.И. Чупров, Ю.А. Зубок. Учеб. Пособие для вузов. – Изд: «Норма», 2011 г.

2. Н.Бушмарина. Молодежные субкультуры как предмет педагогического исследования. Автореферат диссертации докторской на соискание ученой степени кандидата педагогических наук. Москва. 2008.

3. Н.Бушмарина. О методах психолого-педагогической и социальной помощи представителям молодежных субкультур //Актуальные проблемы психологического знания. Выпуск № 1(6). М.: НОУ ВПО Московский психологосоциальный институт, 2008.